



## AYOLLARGA NISBATAN ZO'RAVONLIK HOLATLARINI BARTARAF ETISH.

**Sultonova Nazokatxon Otabek qizi**

*Farg'ona davlat universiteti Tarix fakulteti*

*ijtimoiy ish yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** Bugungi kunda butun dunyo shuningdek mamlakatimizda ayollarga nisbatan zo'ravonlik holatlarining kelib chiqish sabablari va bu holatlarning jamiyatga yetkazadigan zararlari, oqibatlari haqida zo'ravonlik qurboni bo'lgan oilalarning farzandlaridagi og'ishlar, ularning jamiyatga ta'siri, bunday bolalarni reabilitatsiya qilish chora tadbirlari. Deviant xulqli bolalarni tarbiyalayotgan jamiyat. Amalga oshirilayotgan ishlar, ushbu ishlarning samaradorligi va kelajakda qilinishi lozim bo'lgan ishlar to'g'risidagi fikrlar yoritilgan. Bundan tashqari Qur'oni Karim va sunnati nabaviydagi ayollarga oid masalar yoritilib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** ayollar, zo'ravonlik, gender tenglik, Qur'oni Karim, Vidolashuv haji, Konstitutsiya, murojaat, "Himoya orderi", me'yoriy hujjat, deviant xulqli bolalar.

Qadim - qadim zamonlardan ayolga nozik xilqat sifatida qaralgan. Ayollarga hurmat e'tibor ko'rsatib kelingan. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ham " Sog'lom surriyod, barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdagi o'rningiz va xizmatningizni hech narsa bilan qiyoslab, baholab bo'lmaydi. Sizlarning mehr-muhabbatingiz, vafo va sadoqatingiz, fidoyilicingiz sababli hayotimiz charog'on. Sizlar tufayli oilalarimizda tinchlik-osoyishtalik, qut-baraka hukm surayotgani uchun barchangizga har qancha tasanno aystsak, arziydi, albatta", — deb ta'kidlagan edilar . Mustaqillik yillaridan so'ng ayollarning jamiyatdagi ro'lini oshirish, ularning faqat oila bekasi emas jamiyatning faol qatlami bo'lishi uchun ko'plab islohotlar amalga oshirildi. Ammo guruch kurmaksiz bo'lмаганидек ota-bobolarimiz e'zozlab, qadrlab kelgan, uni muqaddas hilqat hisoblagan ayol sha'nı qadr qimmati so'ngi yillar davomida bir karra tushganday. Bugungi kunda mamlakatimiz aholisining qariyb 50 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Ayol va qizlarning barcha sohalardagi samarali mehnati, ayniqsa, farzandlar tarbiyasi, oila hayotidagi ulkan xizmatlarini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi.

Ayni kunlarda atrofimizga nazar solar ekanmiz, ayollarga nisbatan tazyiq, zo'ravonlik holatlarining guvohi bo'lmoqdamiz. Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili(ombudsman) matbuot xizmatidan olingan xabarga ko'ra, ayollarga nisbatan zo'ravonlik holatlari yildan yilga kurtak yozib bormoqda. Ushbu vakilning nomiga 2021-yil aprel oyigacha bo'lgan muddatda jismoniy va jinsiy zo'ravonlik, ruhiy tazyiq o'tkazish holatlari bilan 20 ga yaqin murojatlar kelib tushgan. Ushbu murojatlarning ko'p qismi Qashqadaryo va Surxandaryo viloyatlari ulushlariga to'g'ri keladi. Bundan tashqari mamlakatimizda zo'ravonlik holatining atigi 7% i sudgacha yetib boradi. Bunga asosiy sabablardan biri ma'sul xodimlarning qay yo'l bilan



bo'lsada mana shu oilani saqlab qolishga, yarashtirishga bo'lgan urinishlaridir. Bu yo'l statistika uchun ajrimlar sonining kam bo'lishiga, jamiyatda boshqaruvchilarning nufuzini oshirishga xizmat qilishi mumkin ammo oilalarda deviant xulqli, manipulyatsiyaga uchrashi yuqori bo'lgan, sadis farzandlarni yetishtirishga xizmat qilishi ehtimoldan holi emas. Qush uyasida ko'rganini qiladi deydi dono xalqimiz xuddi shunday ma'naviy muhit yaxshi bo'lмаган oilada ulg'aygan bolalar jamiyatda o'z o'rnnini topa olishi bir muncha qiyin kechadi.

Muqaddas dinimiz ham barchaga birdek munosabat qilinib, erkak va ayollarga tenglik bilan muomalada bo'lish lozim ekanligi aytilgan bundan tashqari har ikki jins vakilining haq-huquqlari biri boshqasidan ustun qo'yilmagan. Islom shariati umumiy shaklda aniq maqsadga erishishni ko'zlagan bo'lib, u "himoya" deb ataladi. Himoya esa turli sohalarda jumladan, ayollarning sha'ni, qadr-qimmati ularga taalluqli bo'lgan barcha narsa islom dini asosida himoya etiladi. Shu sababdan ham Qur'oni karim va sunnati nabaviyda ayollarga oid haq-huquqlar, nozik va daqiq ta'riflar alohida e'tibor bilan keltiriladi,adolat, latofat va mehr bilan e'tirof qilinadi. Shularni e'tiborga olgan holda, ayolning qiz, rafiqqa va ona sifatida umr kechirishi va uning oilada eng muhim va ajralmas ekanligi, ularni o'z turmush o'rtog'lari tomonidan hamisha himoya qilinishligi haqidagi oyatlar va hadislар ham mavjudir

Islom dini ayollarning sha'nini yuksaltirib, ularning turmush tarzini go'zallashtirgan. Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam ayollarga o'z erlariga itoat qilishni, erkaklarga esa jufti halollariga mehribonlik qilishni buyurganlar. Qur'oni karimda "Niso" (Ayollar) nomi bilan alohida sura nozil qilingan bo'lib, unda me'ros va ayollarga muomala qilish hukmlari bayon etilgani dinimizda ularning ehtirom qilinganini ko'rsatib beradi. Darhaqiqat, islomda ayollar rafiqqa sifatida ulug'lanadi. Bu borada Rasululoh sollallohu alayhi vasallamning sahibiyulgara qarata ayollar haqida aytgan vasiyatlarini keltirib o'tishimiz juda ham o'rinni bo'ladi: "Ayollar borasida Allohdan qo'rqinglar. Chunki sizlar Allohnинг omonati ila ularni qo'lga kiritdingiz va Allohnинг kalimasi bilan ularning farjlarini o'zlariningizga halol qilib oldingiz" (Buxoriy rivoyati). Bu hadisdan ham ko'rini turibdiki ayollar erkaklarga berilgan eng katta omonatdir, barchamizga ma'lumki qalbi Allohga bog'langan inson omonatga hiyonat qilmaydi.

Payg'ambarimiz alayhissalom ayppardagi zaiflikni doim e'tiborga olar va ularni himoya qilishga haris edilar. Hatto Vidolashuv hajlaridagi mashhur xutbada ham, ayollarga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lishni qayta-qayta vasiyat qildilar. U Zot alayhissalom birorta ayollariga qo'l ko'tarmadilar, ularga yaxshilik qilishda ummatga ibrat bo'ldilar va shu ishga targ'ib qildilar:ya'ni: "Yaxshilaringiz - oila ahliga yaxshi bo'lganidir. Men - ahli ayoliga eng yaxshingizman" (Imom Termiziyy rivoyatlari) degan edilar. Ammo nima uchundir oilalarda ayolga bo'lgan munosabat qoniqarli emas, ayrim oilalarda ayolga xizmatkorlikning barcha majburiyatları yuklangan shaxs sifatida qaralib kelinadi, ular hattoki oilada o'zining fikrini ayta olmaydi. Ayrim oilalarda esa ayollar gender tenglikni yetarlicha tushunmasligi sababli oilalarda nizoli



holatlar kelib chiqmoqda, jamiyatning huquqiy ongini ko'tarish bilan nizoli holatlarni bartaraf etish kerak.

Konstitutsiyamizning 46-moddasida xotin-qizlar va erkaklar teng huquqli ekanliklari mustahkamlab qo'yilgan, bundan tashqari davlatimiz "Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi, "Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to'g'risida"gi, "Bir xil qiymatga ega bo'lgan mehnat uchun erkaklar va xotin-qizlarni teng rag'batlantirish to'g'risida"gi bir qator konvensiyalarga qo'shilgan.

To'rt yilda yurtimizda ayollar huquqlari himoyasini tubdan kuchaytirishga doir 15 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjat qabul qilingan. Bundan tashqari tashkil etilgan himoya orderida tegishli javobgarlik belgilangan bo'lishiga qaramasdan, tazyiq o'tkazgan va (yoki) zo'ravonlik sodir etgan yoxud ularni sodir etishga moyil bo'lgan shaxs tomonidan himoya orderi talablarini bajarmasdan xotin-qizlarga nisbatan takroran tazyiq o'tkazish va zo'ravonlik sodir etish holatlari ortib bormoqda. Xususan, 2020 yilda himoya orderlarini bajarmaslik oqibatida 146 ta holatda ma'muriy javobgarlik qo'llanilgan bo'lsa, 2021 yil yakuniga kelib bu raqam 1 322 tani tashkil etgan. Havotirli tomoni shundaki, ushbu ko'rsatkich bir yilda yetti barobarga oshgan. Ammo bunday hujjatlar faqat qog'ozlarda qolib ketib amalda yetarlicha foyda keltirmayotganday go'yo. Bundan tashqari ayollarga berilayotgan "Himoya orderi" yetarlicha mukammal ishlab chiqilmagan. Himoya orderi 30 kunga beriladi, unga ko'ra himoyalangan shaxs zo'ravon bilan bir joyda yashashi mumkin emas, bunday holatda ko'pincha ayollar uylaridan chiqib ketadilar, shundan kelib chiqsak zo'ravon 30 kun mobaynida uydan chiqarib yuborilib u bilan prafilaktik ishlar olib borilishi lozim. Xorij tajribasiga amal qilgan holda himoya orderini 2 xil turga qisqa muddatli va uzoq muddatli turlarga o'tkazishni taklif qilaman. 30 kun berilgan muddat tugagandan so'ng oiladagi bolalar bilan suhbat o'tkazilib ular rozi bo'lsalar, ota-onal kelishib olgan holatlardagina "Himoya orderi" "bekor qilinishi lozim.

Olib borilgan davlat siyosatiga qaramasdan zo'ravonlik holatlari kamaymagan. Noyabr oyida O'zbekistonda ayollarga nisbatan zo'ravonlikka ayrim misollarini sanab o'tamiz:

Sirdaryoda erkak xotinini g'isht bilan urib o'ldirgan.

Buxorolik 22 yoshli yigit xotini va 5 yoshli o'g'lini o'ldirib, yoqib yuborgan.

Jizzaxda ayol mast eri tomonidan urib o'ldirildi.

Farg'onada 38 yoshli ayolga eri bolta bilan og'ir tan jarohati yetkazgan.

Yana Farg'onada yaqinda ko'zi yorigan kelinning jasadi suvdan topildi.

Toshkentda Qashqadaryodan kelgan ayol eri va qaynotasi tomonidan zo'rlik bilan avtomobilga bosib olib ketilgan.

Yuqorida keltirilgan voqealarga sabab qonunlarning yetarlicha samara bermayotgani, zo'ravonlarga jazo choralarining qattiq emasligidir. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksning 2061-moddasiga ko'ra, tazyiq o'tkazgan va (yoki) zo'ravonlik sodir etgan yoxud ularni sodir etishga moyil bo'lgan shaxs tomonidan himoya orderi talablarini bajarmaslik bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan





uch baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi. Demak jinoyat sodir etgan shaxs bemalol yetarlicha pul to'lab jazodan ozod bo'lishi mumkin. Oilalarda zo'ravonlik holatlarini kamaytirish uchun ma'muriy jazo turlarini kuchaytirish lozim, kuchaytirish bilan cheklanib qolmay olib borilayotgan ishlar ustidan uzlusiz nazorat olib borish kerak. Bilamizki, barcha mahallar xotin-qizlar faoli mavjud ushbu mas'ul shaxsga har kunlik ma'lumotlar berib borilishi lozim. Butun respublika bo'ylab "Biz zo'ravonlikka qarshimiz" nomli video roliklar tanlovi o'tkazishni ushbu roliklar mahallar peshtoqiga o'rnatilgan monitorda har kun uzatilib borilishini taklif qilaman. Mahallalarda zo'ravon shaxslar nomi ochiq oydinlanishi, ularga qo'llangan choralar ham aytilishi lozim, bu orqali boshqalarga ibrat ko'rsatish lozim.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi ayollar va qizlarning 35 foizi hayoti davomida jismoniy yoki jinsiy zo'ravonlikning qandaydir shakllarini boshdan kechiradi. Aytaylik, butun dunyoda 750 millionga yaqin ayol va qizlar 18 yoshigacha turmushga chiqqan, odam savdosidan jabrlanganlarning 71 foizini ayollar va qizlar tashkil etadi, ularning to'rtadan uch qismi jinsiy ekspluatatsiyaga uchragan. Biroq, bir qator mamlakatlarda ayollarga nisbatan zo'ravonlik oqibatlari asrlar davomida saqlanib qolmoqda. Bunday holatlar kelib chiqishining asosiy sabablaridan biri bugungi davr yoshlarining hayotga yengil qarashlari, huquqiy ongning yetarlicha emasligidir, ko'rindaniki zo'ravonlik butun dunyo darajasidagi pandemiyadir, ushbu pandemiyadan chiqish uchun butun dunyo bir bo'lib harakat qilishi lozim. Bilamizki oq lenta butun dunyoda ayollarga qarshi zo'ravonlikni tugatish onalikni va ayollarni himoya qilishning rasmiy ramzidir. Butun dunyo shu bayroq ostida birlashish lozim. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholi jamg'armasi (UNFPA) ma'lumotlariga ko'ra, nogironligi bo'lgan qizlar va ayollar nogironligi bo'lмагan ayollar va qizlarga qaraganda 10 barobar ko'proq zo'ravonlikka duchor bo'lishadi. Nogironligi bo'lgan ayollar ko'proq himoyasiz bo'lishadi, chunki ularga kerakli shart-sharoitlar yaratilmagan muhitda ularning harakatchanligi cheklangan va boshqalar bilan muloqot qilish qiyin. Zo'ravonlikka duchor bo'lishi mumkin bo'lgan eng zaif ayollar qatoriga eshitish, ko'rish, ruhiy-ijtimoiy va aqliy nuqsonlari bo'lgan ayollar kiradi. Bunday ayollarga e'tibor va ko'mak lozim ayollar o'zining hayotdagi o'rnini, erkaklar esa ayolşarning muqaddas hilqat ekanligini his qila bilsagina zo'ravonlik holatlari kamayadi.

### **FOYDALANILGAN ADBIYOTLAR:**

1. Sh Mirziyoyevning 2017-yil Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan bayram tadbirdagi nutqidan.
2. Vidolashuv haji. (Imom Buxoriy rivoyati)
3. Vidolashuv haji (Imom Buxoriy rivoyati)
4. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi.



5. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksi.
6. [www.xabar.uz](http://www.xabar.uz)
7. [www.sharoitplyus.uz](http://www.sharoitplyus.uz)
8. [www.Kun.uz](http://www.Kun.uz)